



**O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN
AXBOROT-KUTUBXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH:
DAVLATNING ROLI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI**

Narziyev Rustambek

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

I bosqich doktoranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun axborot-kutubxona xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Nogironlar uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, kutubxonalarni moslashtirish, malakali kadrlar tayyorlash va moliyalashtirish manbalarini kengaytirish kabi masalalar muhokama etiladi. Ushbu chora-tadbirlar nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda to'laqonli ishtirokini ta'minlashga va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Axborot-kutubxona xizmatlari, davlat qo'llab-quvvatlashi, ijtimoiy integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, malakali kadrlar tayyorlash, madaniy va ta'limiy ehtiyojlar, BMT konvensiyasi.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫХ
УСЛУГ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В
УЗБЕКИСТАНЕ: РОЛЬ ГОСУДАРСТВА И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ**

Аннотация. В статье анализируются меры, принимаемые государством по развитию информационно-библиотечного обслуживания людей с ограниченными возможностями в Узбекистане. Будут обсуждаться такие вопросы, как внедрение современных информационно-коммуникационных технологий для людей с ограниченными возможностями, адаптация библиотек, подготовка квалифицированных кадров и расширение источников финансирования. Эти меры служат обеспечению полного участия людей с ограниченными возможностями в жизни общества и укреплению социальной интеграции.

Ключевые слова. Информационно-библиотечное обслуживание, государственная поддержка, социальная интеграция, информационно-коммуникационные технологии, подготовка квалифицированных кадров, культурные и образовательные потребности, Конвенция ООН.

Annotation. The article analyzes the measures taken by the state to develop information and library services for persons with disabilities in Uzbekistan. Issues such as introduction of modern information and communication technologies for the disabled, adaptation of libraries, training of qualified personnel and expansion of funding sources will be discussed. These measures serve to ensure the full participation of persons with disabilities in society and to strengthen social integration.

Keywords. Information and library services, state support, social integration, information and communication technologies, training of qualified personnel, cultural and educational needs, UN Convention.

Kirish. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatda to‘laqonli ishtirokini ta‘minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va turmush sifatini yaxshilash barcha davlatlar uchun muhim masaladir. O‘zbekiston Respublikasi ham bu yo‘nalishda bir qator tadbirlar amalga oshirib, nogironligi bo‘lgan shaxslarning madaniy va axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun o‘ziga xos chora-tadbirlar ishlab chiqmoqda. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlash va axborot-kutubxona xizmatlarini takomillashtirish uchun Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-sentabrda qabul qilingan 739-sonli qarori bu boradagi muhim qadam hisoblanadi. Mazkur qaror nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish, ular uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va xizmat ko‘rsatishni yangi bosqichga olib chiqishni ko‘zda tutadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun axborot-kutubxona xizmatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar, bu yo‘nalishdagi dolzarb masalalar va istiqboldagi yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi doirasida, ayniqsa, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Prezident Farmonida ham qayd etilganidek: “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy himoya va tibbiy-ijtimoiy yordamning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirishda yangi yondashuvlarni joriy etish maqsadida amalga oshirilmoqda...”²⁰⁵ 2019-yil BMT maxsus vakilining O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan bolalar va kattalar ahvolining tahlili hisobotida nogironlarning kitobxonlik va kitobdan foydalanish ko‘rsatkichi 21,9 % etib belgilangan²⁰⁶. Albatta, bu ko‘rsatkich nogironligi yo‘larda ham 100 % bo‘lmaydi, ammo bu foizni o‘stirish O‘zbekiston oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Asosiy qism. O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmatlarini ko‘rsatish zarurati haqida gap ketganda, bu soha ham naqadar dolzarb ekanligi

²⁰⁵ “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni – PF-6195, 25.03.2021.

²⁰⁶ O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan bolalar va kattalar ahvolining tahlili. Qisqacha ma‘lumot. United Nations Uzbekistan, 2019. – b. 32.

oydinlashadi. O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun axborot-kutubxona xizmatlarini ko‘rsatish zarurati ularning bilim olish va jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Farmonda keltirilganidek: “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish borasida keng miqyosli ishlar amalga oshirildi.”²⁰⁷ Ushbu sa’y-harakatlar nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun axborotga kirishni osonlashtirish va ularga moslashtirilgan xizmatlar taqdim etishni ko‘zda tutadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun kutubxona xizmatlari faqat axborot manbalarini taqdim etish bilangina cheklanmay, balki ularning madaniy va ta’limiy ehtiyojlarini qondirish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish imkonini ham yaratadi. Shu sababli O‘zbekiston hukumati bu sohada maxsus dasturlarni amalga oshirish orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun axborot va bilimga bo‘lgan talabni qondirishni maqsad qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ularning jamiyatda o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi.

Albatta, har bir amaliy tadbir va ishning o‘z me’yoriy-huquqiy asoslari bo‘ladi. O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning axborot-kutubxona xizmatlariga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash borasida bir nechta huquqiy asoslar mavjud. Asosiy huquqiy hujjatlardan biri bu O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-sentabrdagi 739-sonli qarori bo‘lib, unda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun axborot-kutubxona xizmatlarini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari belgilangan. Ushbu qaror nogironlikka ega shaxslarga xizmat ko‘rsatish tizimini jismoniy imkoniyatlarga moslashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish va madaniy ehtiyojlarni qondirish maqsadida qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning axborotga kirish huquqini himoya qilishga oid huquqiy asoslardan biri bu davlat siyosati doirasida ularning ijtimoiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan choralardir. PF-74 Prezident Farmonida ta’kidlanishicha: “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ehtiyojlarini qondirish, ularning ijtimoiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.”²⁰⁸ Ushbu huquqiy asoslar davlat idoralariga nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun barcha zaruriy axborot-kutubxona xizmatlarini taqdim etish vazifasini yuklaydi. Shuningdek, O‘zbekiston nogironlar huquqlari bo‘yicha BMT konvensiyasi²⁰⁹ni ratifikatsiya qilgan bo‘lib, bu xalqaro hujjat nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan axborotga kirishni ta’minlash va teng imkoniyatlarni yaratishni talab qiladi. Bu huquqiy asoslar davlat idoralariga nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun barcha zaruriy axborot-kutubxona xizmatlarini taqdim etish va ularning huquqlarini himoya qilishda katta mas’uliyat yuklaydi.

²⁰⁷ “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni - PF-6195, 25.03.2021.

²⁰⁸ “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori - PF-74, 17.02.2022

²⁰⁹ „Landmark UN treaty on rights of persons with disabilities enters into force“. Scoop (2008-yil 5-may).

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun kutubxona xizmatlarini rivojlantirish bir necha yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Moddiy-texnika bazasini mustahkamlash: Maxsus kutubxona muassasalarini tashkil qilish uchun zamonaviy qurilish va rekonstruksiya talablariga muvofiq binolarni qurish, ularni nogironlar uchun moslashtirish va zaruriy texnik vositalar bilan jihozlash talab qilinadi. Bu kutubxonalarni qulay, xavfsiz va barcha uchun ochiq axborot markazlariga aylantirishga xizmat qiladi.

Milliy va xorijiy nashrlar bilan boyitish: Kutubxona fondlarini milliy va xorijiy adabiyotlar, jumladan, Brayl yozuvida kitoblar, audio va elektron materiallar bilan boyitish orqali nogironligi bo‘lgan shaxslarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish ko‘zda tutilgan. Bu bilan ular har qanday axborotga erkin kirish imkoniga ega bo‘ladi.

Ushbu yo‘nalishlarda olib borilayotgan ishlardan kutilgan natija nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun axborot va ta‘lim imkoniyatlarini kengaytirish, ularning jamiyatda to‘laqonli ishtirokini ta‘minlashdir. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun kutubxona xizmatlarini rivojlantirish bir necha yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarning muvaffaqiyati uchun kutubxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash muhim. Shuningdek, PF-6195 Prezident Farmonida qayd etilganidek: “Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha tibbiy-ijtimoiy muassasalar moddiy-texnika bazasi holatida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.”²¹⁰ Mazku muammolar ijobiy tarzda hal etilishi uchun maxsus davlat dasturlari, hukumat qarorlari va qonunosti qator hujjatlar qabul qilinib hayotga tadbiiq etilmoqda.

Imkoniyati cheklangan fuqarolarning kitobxonlik borasidagi yo‘nalishidagi faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ham muhimdir. Negaki XXI asr global axborotlashgan sivilizatsiya asri bo‘lib turgan ayni vaqtda bu nihoyatda dolzarb. Shuning uchun ham nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun axborot-kutubxona xizmatlarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ko‘zi ojiz va ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta‘lim olishini sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqish hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun kitoblar, jurnallar va boshqa bosma materiallar (matn, nota yozuvi, illyustratsion materiallar, Brayl yozuvidagi kitoblar va audiokitoblar) bazasini kengaytirish borasida chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bu prezidentning «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»²¹¹gi qarorida belgilangan. Hujjatga ko‘ra, Madaniyat vazirligi 2022 yil yakuniga qadar barcha bolalar musiqa va san‘at maktablariga ko‘zi ojiz va ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar uchun

²¹⁰ “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori - PF-74, 17.02.2022

²¹¹ “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.12.2021 yildagi PQ-57-son

mo‘ljallangan matn va nota yozuvlarining muqobil shakllari bepul tarzda yetkazib berilishini ta‘minlaydi.

Xalq ta‘limi vazirligi 2022 yil yakuniga qadar:

a) o‘quv materiallarining audiokitoblarni va audio tasnadagi yozuvlarni yozib olish, Brayl yozuvidagi kitoblarni tayyorlash hamda ta‘lim muassasalariga yetkazib berish tadbirlarini amalga oshiradi;

b) alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ota-onalari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ularga yetkazib berilishini ta‘minlaydi²¹².

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha xarajatlar 2022 yilda tarmoq vazirliklariga ajratilgan mablag‘lar doirasida moliyalashtiriladi. “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali nogironlar uchun moslashtirilgan axborot va o‘quv dasturlarini joriy qilish masalasi alohida e‘tibor talab etadi.”²¹³. Bu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar nogironlarning axborotga kirishini va ta‘lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu borada esa quyidagi jihatlar, albatta muhim va e‘tibor markazida bo‘lishi kerak.

Internet orqali audio kitoblar va boshqa multimedia xizmatlaridan foydalanish: Axborot-kutubxona xizmatlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yetib boradigan darajada qulaylashtirish maqsadida audio kitoblarni internet orqali taqdim etish yo‘lga qo‘yiladi. Bu ayniqsa ko‘zi ojiz shaxslar uchun dolzarb bo‘lib, ularning ma‘lumot olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ko‘chma kutubxona xizmatlarini joriy qilish: An‘anaviy kutubxona xizmatlariga kela olmaydigan nogironlar uchun ko‘chma kutubxona tizimi orqali xizmat ko‘rsatish amaliyoti tashkil etiladi. Bu usul nogironlar uchun uylaridan chiqmasdan zarur axborot manbalariga ega bo‘lish imkoniyatini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat xizmatlarni ko‘paytirish, balki ularning sifati va yetib borishini ham ta‘minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Maxsus kutubxona xizmatlarini ko‘rsatish uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishiga imkoniyat yaratish davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. PF-26 Prezident Farmonida ta‘kidlanganidek: “Maxsus kutubxona xizmatlarini ko‘rsatish uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishiga imkoniyat yaratish davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.”²¹⁴ Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus kutubxona xizmatlarini rivojlantirishda bu sohada malakali kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy ko‘nikmalarini oshirish muhim ahamiyatga ega. Kutubxonalar

²¹² <https://kun.uz/13814949?q=%2Fuz%2F13814949>

²¹³ “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.12.2017 yildagi PF-5270-son

²¹⁴ “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-26-son

xodimlarining nogironlar bilan ishlashga moslashgan, maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur.

Mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash: Maxsus kutubxonalar uchun kadrlar tayyorlashda ular o‘qituvchilarning nogironlar ehtiyojlarini tushunishi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay olishi va nogironlarga mos xizmat ko‘rsatishga tayyor bo‘lishi zarur. Shu maqsadda, Madaniyat vazirligi, Matbuot va axborot agentligi, hamda boshqa idoralar bilan hamkorlikda bu yo‘nalishda o‘quv kurslari va malaka oshirish dasturlari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Innovatsion texnologiyalar va yondashuvlar: Kadrlarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish, jumladan, Brayl yozuvi, audio va vizual xizmatlar, axborot-kutubxona dasturlari bo‘yicha malakasini oshirish yo‘lga qo‘yiladi. Bu nogironlar uchun xizmat sifatini yaxshilashga, ularga ta‘lim va axborotga yetib borish imkonini kengaytirishga xizmat qiladi. Malakali kadrlarning mavjudligi maxsus kutubxonalar faoliyatini samarali va sifatli tashkil etishda, nogironlar ehtiyojlarini to‘liq qondirishda asosiy omil hisoblanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus kutubxonalarni takomillashtirishda ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlarni yaratish dolzarb masalalardan biridir. Bu borada davlat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga muvofiq: “Nogironlar uchun qulay sharoitlar yaratish va tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir”. Maxsus xizmatlar va moslashuvchan texnologiyalar joriy qilinishi nogironlar uchun axborotga teng kirish imkoniyatlarini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalishda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

1. Maxsus xizmatlar va moslashuvchan texnologiyalar: Kutubxonalar nogironlarning maxsus ehtiyojlarini qondirishi uchun audio kitoblar, Brayl yozuvida kitoblar, katta shriftda chop etilgan materiallar bilan ta‘minlanadi. Ko‘zi ojizlar, eshitish qobiliyati cheklangan va harakatlanish imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun maxsus xizmatlar joriy etiladi.

2. Masofaviy xizmatlarni rivojlantirish: Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun axborot-kutubxona xizmatlarini ularning uylari yoki yashash joylarida masofaviy taqdim etish imkoniyatlari kengaytiriladi. Shu bilan birga, axborotga kirishni ta‘minlovchi raqamli platformalar, elektron kutubxonalar va virtual o‘quv dasturlar ham joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

Bu chora-tadbirlar nogironlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga, ularning ta‘lim va madaniy sohalarida faolligini oshirishga qaratilgan.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun axborot-kutubxona xizmatlarini rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun barqaror moliyalashtirish manbalari zarur. Vazirlar Mahkamasining 739-sonli qarorida moliyalashtirishning asosiy manbalari ko‘rsatilgan:

Davlat budjeti mablag‘lari: O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti doirasida kutubxonalarni qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlari uchun mablag‘ ajratiladi. Bundan tashqari, maxsus axborot-kutubxona muassasalarining joriy xarajatlari ham davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Grantlar va homiylik xayriyalari: Xalqaro tashkilotlar va mahalliy homiylar tomonidan ajratilgan grantlar ham nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun xizmatlarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, texnik uskunalar, zamonaviy texnologiyalar va maxsus o‘quv dasturlar uchun homiylik mablag‘lari ajratiladi.

Xalqaro kreditlar va boshqa manbalar: Xorijiy moliya tashkilotlaridan olingan kreditlar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa moliyaviy manbalar orqali ham axborot-kutubxona xizmatlari tizimini takomillashtirish ko‘zda tutilgan. Barqaror moliyalashtirishning mavjudligi nogironlar uchun xizmatlarni kengaytirish va ularning sifatini yaxshilashda asosiy vositalardan biridir.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun axborot-kutubxona xizmatlarini takomillashtirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar bu guruhdagi shaxslarning jamiyatda to‘laqonli ishtirokini ta‘minlashga, ularga axborot va ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kelgusida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlarni davom ettirish muhim sanaladi:

– Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish: Internet orqali axborot resurslarini kengaytirish, nogironlar uchun maxsus dasturlar va elektron xizmatlarni ko‘paytirish kerak.

– Malakali kadrlar tayyorlash: Maxsus kutubxona xizmatlarini ko‘rsatish uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishiga imkoniyatlar yaratish.

– Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish: Davlat budjeti mablag‘lari bilan birga xalqaro grant va xayriya mablag‘lari, homiylik ko‘maklarini jalb qilish.

– Nogironlar huquqlarini himoya qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: BMT konvensiyasi doirasida xalqaro tajribani o‘rganish va qo‘llash orqali xizmatlarni yanada takomillashtirish.

Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va keng imkoniyatlarga ega axborot-kutubxona tizimini shakllantirishga xizmat qiladi va ularni yanada faollashishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

1. “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni - PF-6195, 25.03.2021.

2. O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan bolalar va kattalar ahvolidagi tahlili. Qisqacha ma‘lumot. United Nations Uzbekistan, 2019. – b. 32.

3. “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni - PF-6195, 25.03.2021.

4. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori - PF-74, 17.02.2022

5. „Landmark UN treaty on rights of persons with disabilities enters into force“. Scoop (2008-yil 5-may).

6. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.12.2021 yildagi PQ-57-son

7. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.12.2017 yildagi PF-5270-so

8. “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-26-son

9. www.kun.uz